

Toshkent shahridagi Turin Politehnika Universiteti va “Huawei Tech Investment Tashkent” MChJ o’rtasida o’zaro anglashuv memorandumini imzolandi.

Huawei Uzbekistan kompaniyasi delegatsiyasi direktor Lyu Tszyasin boshchiligida Toshkent shahridagi Turin Politehnika Universitetiga tashrif buyurdi. Tashrif davomida universitet rektori Inoyatxodjaye J. Sh. va universitet ma’muriyati mehmonlar uchun kampus bo’ylab ekskursiya o’tkazdi.

So’ngra, har ikki tomonning barcha imkoniyatlari bilan tanishib, O’zbekistonning axborot-kommunikatsiya va telekommunikatsiya infratuzilmasini mustahkamlashdagi hamkorlikning o’zaro manfaatdorligi va ahamiyatini tushungan holda, Huawei Uzbekistan direktori Lyu Tszyasin va Toshkent shahridagi Turin Politehnika Universiteti rektori Inoyatxodjaye J. Sh. o’zaro anglashuv memorandumini imzoladi. Unga muvofiq universitet talabalarining raqamli savodxonligini oshirish va malakali IT-kadrlarni tayyorlash bo’yicha qo’shma dasturlar ishlab chiqiladi.

Umid qilamizki, ushbu uchrashuv IT-ta’lim sohasidagi iste’dodlarni qo’llab-quvvatlash va O’zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari sohasini yanada rivojlantirishda katta qadam bo’ladi.





